



“OZBEK GEOLOGIYA OIDIRESI”

Hisor markaziy geologik qidiruv

ekspeditsiyasi boshlig‘i

E.T.Rayimqulov

“ ” noyabr 2024 yil

Hisor markaziy geologik qidiruv ekspeditsiyasi ishchi-xodimlarining

MAJLIS BAYONI №9

22.11.2024 yil.

Shaxrisabz shahri.

Yig‘ilish raisi:

M.Ashurov

Yig‘ilish kotibi:

N.Yusupova

Yig‘ilish ishtirokchilari: Jinoyat ishlari buyicha Shaxrisabz tuman sudi
sudyasi M.Abraev ekspeditsiya ishchi xodimlari

Kun tartibida:

1. “9-dekabr Butun jaxon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan
Korruptsiyaga qarshi kurashish mavzusi.

Raislik etuvchi yig‘ilishni olib, kun tartibidagi masalani e’lon qilib, qo’shimcha va
e’tirozlar bor-yo‘qligini so‘radi.

Qo’shimcha va e’tirozlar bo‘lmadi.

Raislik etuvchi kun tartibidagi masala yuzasidan Jinoyat ishlari buyicha Shaxrisabz
tuman sudi sudyasi M.Abraevga so‘z berdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan M.Abraev so‘zga chiqib, “9-dekabr Butun jaxon
korruptsiyaga qarshi kurashish kuni” ekanligini «Korruptsiya illatiga qarshi birgalikda
kurashamiz» mavzusida ma’ruza qilib, jumladan Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki
kunlaridanoq korruptsiya illatiga qarshi kurashish masalasiga alovida e’tibor qaratib
kelinayotganligi, chunki poraxo‘rlik xokimiyyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan, uning axoli
oldidagi obro‘siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy xuquq manfaatlari daxl
qiladigan xavfli jinoiy xodisalardan biri ekanligi va xokozolar to‘g‘risida to‘taldi. Xulosa qilib
aytganda korruptsiyaga qarshi kurashda davlat va jamiyatning o‘zaro jipsligi talab etilishligi, zero
bu yo‘nalishda olib borilayotgan isloxtlarda nafaqat davlat organlari xodimlari balki fuqarolar
tomonidan xam faollik ko‘rsatilsa ko‘zlangan maqsadga erishish mumkinligini aytib o‘tdi.

Shundan so‘ng raislik etuvchi so‘zga chiqib o‘z nutqida korruptsiyaga qarshi kurashda
jamoatchilik va yoshlar faollik ko‘rsatishi lozimligini va bunda tashabbuskorlikni namoyon
qilish lozimligini ta‘kidlab o‘tdi.

Shundan so‘ng ma’ruzachilar va ishchi xodimlar o‘rtasida kun tartibidagi masala
yuzasidan muzokaralar va savol javoblar bo‘lib o‘tdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Hisor markaziy dala geologik qidiruv ekspeditsiyasi
ishchi xodimlari yig'ilishi.

Q A R O R Q I L A D I:

1.Hisor markaziy geologik qidiruv ekspeditsiyasida “9-dekabr Butun jaxon korrupsiyaga
qarshi kurashish kuni” munosabati bilan ekspeditsiya mexnat jamoasi va ishchi xodimlariga
o'rtasida muhokama qilinganligi qayd etilsin.

2.Utkazilgan davra suxbati buyicha ma'lumot «Uzbek geologiya kidiruv» AJ ga takdim
etilsin.

Yig'ilish raisi:



M.Ashurov

Yig'ilish kotibi:

N.Yusupova